

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI**

**XASHIMOVA MADINA MURADXANOVNA**

**HUDUDLAR EKOTURISTIK SALOHIYATIDAN SAMARALI  
FOYDALANISH YO‘LLARI**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
in economic sciences**

**Xashimova Madina Muradxanovna**

Hududlar ekoturistik salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llari.....3

**Хашимова Мадина Мурадхановна**

Пути эффективного использования экотуристического потенциала регионов  
.....25

**Xashimova Madina Muradxanovna**

Paths to the effective utilization of ecotourism potential in regions.....49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....53

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI**

**XASHIMOVA MADINA MURADXANOVNA**

**HUDUDLAR EKOTURISTIK SALOHIYATIDAN SAMARALI  
FOYDALANISH YO‘LLARI**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt4298 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.univ-silkroad.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Aslanova Dilbar Xasanovna**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Matyakubov Umidjon Raximovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qodirov Azizjon Anvarovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Toshkent davlat transport universiteti**

Dissertatsiya himoyasi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.I.145.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 17-uy. Tel: (998) 507258907; Faks: (998 66) 240-67-68, e-mail: science-dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya ishi bilan "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 17-uy. Tel: (998 90) 213-89-07; Faks: (998 66) 240-67-68, e-mail: science-dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.A.Eshtayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**X.I.Turdibekov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, i.f.n., dotsent

**B.Sh.Safarov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahon miqyosida ekologik turizmga bo'lgan talabning ortishi barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim tendensiyalaridan biridir. An'anaviy turizm shakllari ko'pincha ekologik tanazzulga, biologik xilma-xillikning yo'qolishiga, tabiiy resurslarning talon-taroj qilinishiga va madaniyatning tijoratlashtirilishiga olib keladi. Birlashgan millatlar turizm tashkilotining turizm bo'yicha ixtisoslashgan agentligi (UN-tourism) ma'lumotlariga ko'ra, "2023-yilda jahon ekoturizm bozori hajmi 219,53 milliard AQSh dollaridan 2024-yilda 249,16 milliard AQSh dollariga o'sishi, bunda yillik murakkab o'sish sur'ati (CAGR) 13,5 foizni tashkil qilishi, 2028-yilda esa yillik murakkab o'sish sur'ati 14,5 foizga teng bo'lib, umumiy bozor hajmi 428,97 milliard AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda"<sup>1</sup>. Bu borada, ekologik turizmning rivojlanishi nafaqat sayohatchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, balki mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratish va mintaqaviy iqtisodiyot o'sishiga imkon beradi. Bu tendensiya ekologik muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi va barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.

Jahonda barqaror rivojlanish asosida, ekologiya turizm kontsepsiyasining an'anaviy turizm modellariga hayotiy muqobil yo'nalish sifatida ommalashishiga qaratilgan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, barqaror turizmning zamonaviy turi bo'lgan ekoturizmning maqsadi turizmning salbiy ta'sirlarini kamaytirish va uning mahalliy aholi, manfaatdor guruhlar, atrof-muhit hamda kelajak avlod uchun ijobiy ta'sirini maksimal darajada oshirish asosida iqtisodiy o'sishni, atrof-muhitni muhofaza qilishni va ijtimoiy-madaniy merosni saqlashga erishish modellarini ishlab chiqish, xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan infratuzilmani takomillashtirish, qulay va maqbul ekoturizm muhitini shakllantirish, ekoturistik destinatsiyalarning strategiyalarini ishlab chiqish yo'llarini takomillashtirish, transport logistikasini takomillashtirish, ichki va tashqi yo'nalishlarni kengaytirish, turistik xizmatlarning sifatini oshirish, hududiy ekoturizm sohasi istiqbollarni ekonometrik modellashtirish va prognozlash, ekoturizm bozorining turli segmentlariga mo'ljallangan turistik mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiya qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralmoqda.

Yangi O'zbekistonda turizm xizmatlari bozorini barqaror rivojlantirish konsepsiyasi joriy qilingan bo'lib, ekoturistik xizmatlar hajmini oshirishda keng imkoniyatlari belgilangan. "...2023-yil oktabr oyida Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon turizm tashkiloti forumi doirasida 2 milliard 300 million dollarlik investitsiyaviy kelishuvlarga erishilgan edi. Ular orasida turizm infratuzilmasini rivojlantirish, yangi maskanlar barpo etishga qaratilgan loyihalar ko'p. Bunday ishlarni Ohangaron, Urgut, Nurota, Yangiqo'rg'on, Pop, Chortoq, Boysun, Sariosiyo, Baxmal, Farg'ona kabi turizm salohiyati yuqori 20 ta tumanda ham qilish mumkin"<sup>2</sup>. Ushbu vazifalarning bajarilishi hududiy turistik resurslardan

---

<sup>1</sup>Ecotourism Global Market Size, Competitors & Forecast/ <https://www.researchandmarkets.com/report/ecotourism>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida "Turizm infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha vazifalar" yuzasidan videoselektor yig'ilishi ma'ruzasi/ 03-iyun 2024 yil / <https://president.uz/oz/lists/view/7282>.

samarali foydalanish, hududlarda ekoturizm infratuzilmasini tashkil qilish, turistik destinatsiyalarning ekologik holati va barqaror rivojlantirishni ta'minlash, ekologik talablar asosida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasiga yetkazish, turizm xizmatlarini ko'rsatuvchilar va iste'molchilar o'rtasida axborot almashinuvini tizimli yo'lga qo'yish orqali tashrif buyuruvchilar oqimini ko'paytirish, rekreatsion salohiyatidan foydalanish usullarini takomillashtirish, ekoturistik klasterni tashkil qilish, "Turizm qishlog'i" maqomini berishini asoslash, ekoturistik xaritani yaratish, ekonometrik usullar orqali ekoturizmni rivojlantirishning istiqbolli parametrlarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-son "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-son "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyuldagi 433-son "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 17-avgustdagi 559-son "Tog'li hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2019-yil 30-sentabrdagi 828-son "Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari va sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya tadqiqotidagi natijalar muayyan darajada xizmat qiladi<sup>3</sup>.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va

---

<sup>3</sup> <https://lex.uz> – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ekoturizm sohasini rivojlantirish, turistlar uchun barqaror ekoturistik infratuzilmani shakllantirish, ekoturizmda bozor segmentatsiyasi, turistlarning idrokini tushunish, tashrif buyuruvchilarning turizmni rivojlantirishga munosabatlari jabhalari, yangi destinatsiyalarni tatbiq etishni isloh etish va rekreatsion resurslardan foydalanishning alohida muammolarining nazariy va amaliy masalalari xorijlik olimlaridan A.Y.Boyko, A.S.Kuskov, A.I.Ziryanov, A.D.Chudnovskiy, T.X.Abubakarova, Mahreen Riaz, Honey M, Jaime A. Seba, Allcock J, Qiushi Gu, Duncan East, Xiaoting Huang<sup>4</sup> kabilarning ilmiy asarlari va tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Mamlakatimizda ekologik turizmni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga doir muammo va yechimlar Q.X.Abduraxmonov, N.Tuxliyev, M.Xoshimov, I.S.Tuxliyev, B.Sh.Safarov, O.X.Xamidov, A.A.Eshtayev, M.T.Aliyeva, A.T.Mirzayev, A.N.Norchayev, U.Matyakubov, A.Qodirov, N.S.Ibragimov, A.K.Alimov, D.X.Aslanova va boshqalar tomonidan atroflicha o‘rganilgan<sup>5</sup>.

---

<sup>4</sup> Бойко, А. Е. Формирование кластеров как инструмент повышения конкурентоспособности туристических услуг : дис. канд. экон. наук : 08.00.05 / А. Е. Бойко. – Новосибирск, 2011. – 24 с.; Кусков, А. С., Джаладян, Ю. А. Основы туризма : учебник / А. С. Кусков, Ю. А. Джаладян. – М. : Кнорус, 2019. – 84 с.; Зырянов, А. И. Теория и методология рекреационной географии : учебное пособие / А. И. Зырянов. – Пермь : Пермский государственный университет, 2021. – С. 12–13.; Абубакарова, Т. Х. Развитие экотуризма в горных территориях // Вестник науки. – 2019. – №11 (20). – Т. 3. – С. 11–15.; Riaz, M. Ecotourism evaluation of concepts and impact on Germany / M. Riaz // Academy of Entrepreneurship Journal. – 2022. – Vol. 28, Special Issue 6. Honey, M. Ecotourism and Sustainable Development / M. Honey. – London : Island Press, 2008. – 10 p.; Seba, J. A. Ecotourism and sustainable tourism : new perspectives and studies / J. A. Seba. – Boca Raton : Apple Academic Press, 2012. – (pp. 11–18).; Allcock, J. Seasonality / J. Allcock // In: Tourism Marketing and Management Handbook / S. F. Witt, L. Motuinho (Eds). – 1994. – (pp. 15–30).; Gu, Q., Zhang, H., Huang, S., Zheng, F., Chen, C. Tourists’ spatiotemporal behaviors in an emerging wine region: A time-geography perspective / Q. Gu, H. Zhang, S. Huang et al. // Journal of Destination Marketing & Management. – 2020.; East, D. Combining GPS & survey data improves understanding of visitor behaviour / D. East // Tourism Management. – 2017. – Vol. 61. – P. 307–320.; Huang, X., Shen, Y. Tourists’ spatial-temporal behavior patterns in theme parks: A case study of Ocean Park Hong Kong / X. Huang, Y. Shen et al. // Journal of Destination Marketing & Management. – 2020. – Vol. 15.

<sup>5</sup> Абдурахмонов, К. Х. Менеджмент туризма : учебное пособие / К. Х. Абдурахмонов. – Ташкент : Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г. В. Плеханова» в Ташкенте, 2013. – 248 с.; Тухлиев, Н., Абдуллаева, Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана / Н. Тухлиев, Т. Абдуллаева. – Ташкент : Гос. науч. изд. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2006. – 386 с.; Хошимов, М. O‘zbekiston ekologik turizmi: монография / М. Хошимов. – Самарканд: «Zarafshon» нашриёти ДК, 2009. – 220 б.; Тухлиев, И. Туризм асослари / И. Тухлиев. – Самарканд: СамИСИ, 2010. – 271 б.; Сафаров, Б. Миллий туристик хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик-услубий асосларини такомиллаштириш : и. ф. д. дис. автореф. / Б. Сафаров. – Самарканд, 2016. – 71 б.; Хамидов, О. Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантиришни бошқариш механизми такомиллаштириш : и. ф. д. дис. автореф. / О. Хамидов. – Самарканд, 2017. – 68 б.; Эштаев, А. А. Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида) : DSc. дис. автореф. / А. А. Эштаев. – Самарканд, 2019. – 71 б.; Алиева, М. Т. Иқтисодий эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари (Ўзбекистон Республикаси мисолида) : DSc. дис. автореф. / М. Т. Алиева. – Самарканд, 2019. – 71 б.; Мирзаев, А. Т. Ўзбекистонда туристик-рекреация фаолиятини бошқариш методологиясини такомиллаштириш : DSc. дис. автореф. / А. Т. Мирзаев. – Тошкент, 2021. – 68 б.; Норчаев, А. Н. Замонавий туризм инфратузилмасининг шаклланиш ва ривожланиш тенденциялари : DSc. дис. автореф. / А. Н. Норчаев. – Тошкент, 2021. – 78 б. Алимов, А. Қорақалпоғистон Республикасида экологик туризмни ривожлантиришнинг асосий йўналишлари ва истикболлари : и. ф. д. дис. автореф. / А. Алимов. – Самарканд: СамИСИ, 2018. – 54 б.; Матякубов, У. Оролбўйи минтақасида туризмни стратегик ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий ва методологик йўналишларини такомиллаштириш : DSc. дис. автореф. / У. Матякубов. – Урганч, 2022. – 78 б.; Асланова, Д. Х., Саттарова, З. И., Алимова, М. Т. Региональный туристский кластер как инструмент повышения эффективности экономики региона / Д. Х. Асланова, З. И. Саттарова, М. Т. Алимова // Научный результат. Социология и управление. – 2016. – Т. 2, №1.

Mamlakatimiz hududlaridagi mavjud ekoturistik salohiyatdan samarali foydalanish, ekologik turizmni yanada rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga doir ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularda hozirgi paytdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasidagi o'zgarishlar, samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash, turizm sohasini raqamli transformatsiyalash va innovatsion yondashuvlar asosida hududlar ekoturistik salohiyatidan samarali foydalanish yo'llarini aniqlash kabi masalalar yetarlicha o'z aksini topmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining №SRITU-18/02 – "Turizm va madaniy meros sohasini samarali rivojlantirishning innovatsion usullari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** turizm sohasini rivojlantirishda hududlarning ekoturistik salohiyatidan samarali foydalanish yo'llarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

ekoturizmni hududlarda rivojlantirish bilan bog'liq tushunchalarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini tahlil etish va nazariy qarashlarini tizimlashtirish;

ekoturizm sohasini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy amaliyot yutuqlarini qiyosiy taqqoslash asosida turizm sohasi amaliyotiga foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

hududlarda ekologik turizmni rivojlantirish salohiyatini aniqlash usullarini tadqiq etish;

Samarqand viloyati ekoturizm salohiyatini tahlil qilish va baholash;

ekoturizm xizmatlari yo'lga qo'yiladigan hududlarga turistlarni qabul qilish sig'imini hisoblash;

ekoturizm xizmatlari yo'lga qo'yiladigan hudud klasterlarining ishtirokchilarini aniqlash;

ekoturistik klaster ishtirokchilarining turistik xizmatlar ko'rsatishda unga turdosh tarmoqlarga ta'sirini aniqlash asosida hududning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqish;

turizm sohasini rivojlantirishda hududlar ekoturistik salohiyatidan samarali foydalanish asosida turistlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatishning istiqbolli parametrlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida mamlakatimiz, jumladan Samarqand viloyatidagi turizm sohasida faoliyat ko'rsayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining iqtisodiy faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmeti** hududlar ekoturistik salohiyatidan samarali foydalanish yo'llarini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada taqqoslash, tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, ijtimoiy so'rovnoma, statistik tahlil, "Xarajat – ishlab chiqarish" va tahliliy iyerarxik jarayon, iqtisodiy-matematik usullar, jumladan, regression tahlil va istiqbolli bashoratlash kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mamlakatimizning mavjud resurslaridan oqilona foydalanish hisobiga ekologik turizmni rivojlantirish yoʻnalishida milliy tabiat bogʻlari, oʻrmonlar va oʻrmon-ov xoʻjaliklari hamda togʻli hududlarda joylashgan yer uchastkalarini ularning toifasini oʻzgartirmagan holda ekoturistik salohiyatini baholash asosida tadbirkorlik subʻektlari faoliyatini taʼminlash maqsadida turistik klasterlar tashkil etish uchun 10 yil muddatga (keyinchalik uzaytirish imkoniyati bilan) “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish boʻyicha takliflar asoslangan;

mamlakatimizning imijini mustahkamlash, yangi turistik yoʻnalishlarni ishlab chiqish hamda ekoturizm obyektlari roʻyxatini shakllantirish va ularni turistik marshrutlarga kiritish asosida “Qishloqda ikki kun” deb nomlangan mualliflik loyihasini amalga oshirish doirasida Urgut tumani “Omonqoʻton” qishlogʻida ekoturistik kempinglar, bolalar oromgohi va sport kompleksini tashkil etish hamda ekoturizm dam olish maskanini faoliyatini yoʻlga qoʻyishning samaradorligi boʻyicha takliflar asoslangan;

Oʻzbekistonning “Ekoturizm xaritasi”ni ishlab chiqish asosida Samarqand viloyatiga 2 million nafar xorijiy turist tashrifini tashkil etish, hududlarning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish metodikasini takomillashtirish, ekohududlarda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va yoʻl infratuzilmasini yaxshilash, shuningdek, turizm va unga yondosh infratuzilmani qurish va rekonstruksiya qilish boʻyicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida “Omonqoʻton ekoturizm xaritasi”ni yaratish boʻyicha takliflar asoslangan;

hududlarning turistik salohiyati, ekologik resurslar va turizmni barqaror rivojlantirish koʻrsatkichlarning prognoz hisob-kitoblari asosida 2028-yilgacha boʻlgan oʻrta muddatli prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatida sayohat qiluvchi mahalliy turistlar sonini keskin oshirish va ekologik turizmni rivojlantirish maqsadida zarur infratuzilmaga ega kempinglar va piknik zonalarni moddiy texnik bazasini yaratish boʻyicha amaliy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan;

milliy tabiat bogʻlari (Zarafshon va Omonqoʻton milliy tabiat bogʻi) va oʻrmon xoʻjaliklarining (Dargʻom davlat oʻrmon ishlab chiqarish korxonasi) batafsil rejalashtirish loyihalari va master-rejalarini ishlab chiqish ishlarini tashkil qilish asosida ekohududlarda tashkil etiladigan turistik klasterlar hududida turistik obyektlarni qurish uchun yengil va tez quriladigan konstruksiyali hamda ekologik toza qurilish materiallarga qoʻyiladigan norma va talablarni belgilash boʻyicha takliflar asoslangan;

“Samarqand – Yangi Oʻzbekistonning turizm darvozasi” ichki turizm dasturi asosida har yili 500 mingdan ziyod ekoturistlarning Samarqandga sayohatini tashkil etish negizida Urgut tumani “Omonqoʻton” turizm qishlogʻi maqomini olish boʻyicha barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirish boʻyicha takliflar dalillangan;

milliy tabiat bogʻlari, oʻrmon va oʻrmon-ov xoʻjaliklari, togʻli hududlaridagi turistik klasterda turizm xizmatlarini koʻrsatuvchilar va isteʼmolchilar oʻrtasida

axborot almashinuvini tizimli yo'lga qo'yish orqali tashrif buyuruvchilar oqimini ko'paytirish hamda turistik klasterlarning tashrif markazlarida turistlar hisobini yuritib borishni ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Birlashgan millatlar turizm tashkilotining turizm bo'yicha ixtisoslashgan agentligi rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida keltirilgan ilmiy-metodologik taklif va tavsiyalar mamlakatimiz turizm sohasini barqaror rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va davlat dasturlarini amalga oshirish mexanizmining metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga qaratilgan manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki uning natijalari respublika hududlarida ekoturizm salohiyatidan samarali foydalanish, hududlar iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqishda shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasining ustuvor yo'nalishlar, maqsad va vazifalarini bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi, Respublika viloyatlari hokimliklari, Statistika agentligi va boshqa davlat boshqaruvi organlari tomonidan xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish jarayonida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy etilishi.** Hududlar ekoturistik salohiyatidan samarali foydalanish yo'llarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

mamlakatimizning mavjud resurslaridan oqilona foydalanish hisobiga ekologik turizmni rivojlantirish yo'nalishida milliy tabiat bog'lari, o'rmonlar va o'rmon-ov xo'jaliklari hamda tog'li hududlarda joylashgan yer uchastkalarini ularning toifasini o'zgartirmagan holda ekoturistik salohiyatini baholash asosida tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini ta'minlash maqsadida turistik klasterlar tashkil etish uchun 10 yil muddatga (keyinchalik uzaytirish imkoniyati bilan) "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish bo'yicha asoslangan takliflar 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son "Tabiatga sayohat" ekoturizmni rivojlantirish milliy dasturi" chora-tadbirlar rejasiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 18-oktabrdagi 03-12-17-6915-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi natijasida turizm sohasida zarur infratuzilmani rivojlantirish va mamlakatda turistik klasterlar tashkil etish

natijasida ekoturistik hududlarda turistlar tashrifi 20 foizga, ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini 30 foizga oshirish imkoniyatlari dalillangan;

mamlakatimizning imidjini mustahkamlash, yangi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish hamda ekoturizm obyektlari ro'yxatini shakllantirish va ularni turistik marshrutlarga kiritish asosida "Qishloqda ikki kun" deb nomlangan mualliflik loyihasini amalga oshirish doirasida Urgut tumani "Omonqo'ton" qishlog'ida ekoturistik kempinglar, bolalar oromgohi va sport kompleksini tashkil etish hamda ekoturizm dam olish maskanini faoliyatini yo'lga qo'yishning samaradorligi bo'yicha asoslangan takliflar 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "2023-yilda turizm sohasidagi resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hamda mavjud muammolarni tezkor hal etish bo'yicha "Yo'l xaritasi" rejasiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 18-oktabrdagi 03-12-17-6915-sonli ma'lumotnomasi). Taklifning amalga oshirilishi natijasida Urgut tumani, "Omonqo'ton" MFY hududida ekoturistik kempinglar, bolalar oromgohi va sport kompleksiga hamda ekoturizm dam olish maskani hududlariga turistlar tashrifi 1,5 barobar oshishiga erishilgan;

O'zbekistonning "Ekoturizm xaritasi"ni ishlab chiqish asosida Samarqand viloyatiga 2 million nafar xorijiy turist tashrifini tashkil etish, hududlarning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish metodikasini takomillashtirish, ekohududlarda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va yo'l infratuzilmasini yaxshilash, shuningdek, turizm va unga yondosh infratuzilmani qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida "Omonqo'ton ekoturizm xaritasi"ni yaratish bo'yicha asoslangan takliflar 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son "Tabiatga sayohat" ekoturizmni rivojlantirish milliy dasturi" chora-tadbirlar rejasiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 18-oktabrdagi 03-12-17-6915-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mazkur "Omonqo'ton ekoturizm xaritasi" tashrif buyuruvchi turistlarga manzilni tez, oson va xavfsiz topish jarayonlarini soddalashtirdi hamda ekohududlarda ekoturizm xizmatlarining rivojlanishiga imkon yaratib bergan;

hududlarning turistik salohiyati, ekologik resurslar va turizmni barqaror rivojlantirish ko'rsatkichlarning prognoz hisob-kitoblari asosida 2028-yilgacha bo'lgan o'rta muddatli ishlab chiqilgan prognoz parametrlarini qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar Turizm qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "2024-2027-yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil o'rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar" dasturi va "Yo'l xaritalari"ga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 18-oktabrdagi 03-12-17-6915-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish natijasida 2028-yilgacha sanatoriylar va dam olish zonalariga tashrif buyuruvchilar soni 1205,41 ming kishiga yetadi, bunga esa ekoturizm infratuzilmasining rivojlanishi, kiruvchi turistlar oqimi hamda mahalliy aholining respublika bo'ylab

sayohatga chiqishlar soni ko'payishi kabi omillar ta'sir ko'rsatishi ilmiy asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shulardan 4 ta respublika va 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 101 betni tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Hududlarda ekoturizmni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida ekoturizmga oid tushunchalarning mohiyati va uni hududiy rivojlanishidagi ahamiyati, ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha chet el tajribasi va uni O'zbekiston Respublikasi hududlarida qo'llash yo'nalishlari, tog'li hududlarda ekoturizmni o'ziga xos xususiyatlari asosida tashkil etish va hudud iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'siri aniqlangan.

Ekologik turizmni har bir hudud imkoniyatlariga muvofiq holda samarali va jadal rivojlantirish, uning infratuzilmasini barpo etish va samarali loyihalarni ishlab chiqarish, mamlakat hududlarida tematik turistik zonalar va klasterlarni yaratish orqali, yangi turizm dasturlari ishlab chiqarish hududlar ekoturistik salohiyatidan samarali foydalanish yo'llarini belgilab olishni taqazo etadi.

Tadqiqotimizda hududlarda ekoturizmning o'ziga xos xususiyatlari asosida ekoturizm xizmatlari yo'lga qo'yiladigan hudud (ekoturistik hudud)larni tashkil qilishning nazariy jihatlari tahlil qilingan. Tahlil natijasida ekoturistik hududlarni tashkil qilishda hududlarning ekologik holati, turizmni rivojlantirishning barqarorligini ta'minlash uchun hududning yaroqliligi aniqlashning nazariy-uslubiy jihatlari yoritilgan (1-rasm). Shuningdek, ekoturistik hududlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoni ilmiy-nazariy jihatlari ham yoritilgan. Tahlil natijasida ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishida joylashtirish vositalarini yengil va tez quriladigan konstruksiyalar asosida barpo etish turistik xizmatlar turini rivojlantirish strategiyasida muhim o'rin egallashi aniqlandi.



**1-rasm. Hududlar ekoturistik salohiyatini aniqlash yo‘llari<sup>6</sup>**

1-rasmdagi ko‘rsatkichlar hududlar ekologik holatining nazariy qarashlaridan kelib chiqib, ekoturistik faoliyat tabiiy tizimga bog‘liq bo‘lganligi sababli hududlarning ekoturistik salohiyati uning jozibadorligiga va joylashuviga oid olimlar tomonidan tadbiq qilingan aniqlash usullarini umumlashtirish maqsadga muvofiqdir.

**1-jadval**

**Hududlarning ekologik holatini aniqlash usullari**

№	Usullar tasnifi	Olimlar
1	Joylashishiga qarab turistik (mintaqa, tugun, kamar, hudud, obyekt) maqomi berilishi. <sup>7</sup>	A.I.Ziryanov
2	Hududdagi turistik obyektlar miqdori bo‘yicha uning jozibadorlik koeffitsiyentini aniqlash. <sup>8</sup>	Roque Guerrero J.V., Teixeira Gomes A.A., Jose Augusto de Lollo, Luiz Yeduardo Moschini
3	Tabiiy resurslar o‘ziga xos xususiyatlari (flora, fauna, iqlimiy, orografik, gidrologik, balneologik) asosida jozibadorlik koeffitsiyentini aniqlash. <sup>9</sup>	A.S.Kuskov, A.Y.Djaladyan

Avtoreferatning 1-jadval ko‘rsatkichlaridan hududlarning ekologik holatini aniqlash usullarini umumlashtirish asosida quyidagi xulosaga kelindi:

<sup>6</sup> Mualliflik ishlanmasi.


<sup>7</sup> Зырянов А.И. Систематизация туристских таксонов // Вестник Московского университета. Сер.5. География: 2014, №3. Методы географических исследований. УДК 796.5: 338.48. 16-19-стр.

<sup>8</sup> Roque Guerrero J.V., Teixeira Gomes A.A., Jose Augusto de Lollo, Luiz Yeduardo Moschini. Mapping Potential Zones for Ecotourism Ecosystem Services as a Tool to Promote Landscape Resilience and Development in a Brazilian Municipality. *Sustainability*. 2020, 12, 10345. <https://doi.org/10.3390/su122410345>

<sup>9</sup> Кусков А.С., Джаладян Ю.А. Основы туризма. Учебник / Москва: Кнорус, 2019. 389 стр. 68-77-стр.

hududlarning joylashishi jihatidan ekoturistik hududlarni tashkil qilish uchun mosligini aniqlash lozim;

hududlardagi turistik obyektlar miqdori hamda tabiiy resurslarning mavjudligi asosida ekoturizmni rivojlantirish salohiyati (o'ta yuqori, yuqori, o'rta yoki past) darajada ekanligi aniqlanadi.



## 2-rasm. “Ekoturistik hudud”ning ekologik holati tasnifi<sup>10</sup>

Shuningdek, 1-rasmga binoan ekoturistik hududlarda turizmni rivojlantirish imkoniyati tahlil qilindi. Ilmiy-nazariy tahlillar natijasida tadqiqotni tog'li hududlarda olib borishga qaror qilinganligi sababli, ushbu hududlarda turizmni rivojlantirishga oid mezonlar (tog'larning balandligi, qiyaliklarning chuqurligi, turistik obyektlar va so'qmoqlar mavjudligi, yo'llar holati, yerdan foydalanish imkoniyatlari) tanlandi. Mezonlar asosida hududning ekoturizmni rivojlantirish uchun yaroqliligini GAT (geoaxborot tizimi) raqamli texnologiyalari asnosida aniqlashning ilmiy-nazariy jihatdan ahamiyatliligi tahlil qilingan.

Darhaqiqat, ushbu bobdagi ilmiy-nazariy tahlil natijasida yuqori jozibadorlikga ega bo'lgan ekoturistik hududlarda joylashgan turizm uchun

<sup>10</sup> Muallif ishlanmasi

ixtisoslashgan joy (turistik baza, shaharcha, qishloq) hamda ko‘p miqdorda kichik kempinglar asosida kompleks yaratish mumkin degan fikrga kelindi. Ekoturistik hududlarda komplekslarni tashkil qilishda joylashtirish vositalari yengil va tez quriladigan konstruksiya hamda ekologik toza qurilish materiallaridan barpo etish hududning ekotizimini saqlab qolishga asos bo‘ladi.

O‘z navbatida bunday strategiya ekoturistik hududlardagi kichik va o‘rta korxonalar iqtisodiy bir maqsadda birlashuvi va ularning muvaffaqiyatli faoliyati va kooperatsion hamkorlikda olib borilishini ta‘minlaydi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonning milliy tabiat bog‘lari, o‘rmon va o‘rmon-ov xo‘jaliklari va tog‘li hududlarida ekologik turizmni rivojlantirish holatining tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston milliy tabiat bog‘lari, o‘rmon va o‘rmon-ov xo‘jaliklari va tog‘li hududlarida ekoturizmni rivojlantirish holati tadqiq qilingan hamda Samarqand viloyati hududlarida ekoturistik hudud tashkil qilish holatining tahlili va hududlar turistik obyektlar va tabiiy resurslarining o‘ziga xos xususiyatlari asosida Ohalik, Mironko‘l, Omonqo‘ton hududlarida ekoturistik hududlarni tashkil qilish salohiyati aniqlangan hamda ekoturistik hududlarga tashrif buyuruvchilar oqimini hisobga olgan holda turistlar hisobini yuritib borishning uslubi takomillashtirilgan.

Tadqiqotda mamlakatimizdagi turistlar harakati va ularni joylashtirish vositalari bilan ta‘minlanishga oid ko‘rsatkichlarni tahlili natijasida ekoturizmni rivojlantirish strategiyasi aniqlandi.

**2-jadval**

**2020-2024-yillarda mamlakatimiz turistik infratuzilmasi rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari<sup>11</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2023-yil 2019-yilga nisbatan %da
Ichki turizm (kishi)	532544	176646	522009	538938	728581	137
Faoliyat ko‘rsatayotgan turistik korxonalar va tashkilotlar soni, birlik	571	337	288	348	593	115
Mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalarida joylar soni, birlik	1051	1156	1085	1167	1387	132
Dam olish tashkilotlari va turistik bazalari obyektlari soni, birlik	298,0	277,0	132,0	163,0	172,0	57
Dam olish tashkilotlari va turistik bazalarida joylar soni (ming birlik)	33,5	29,6	72,3	24,5	16,9	50

3-jadval ma‘lumotlaridan shuni ko‘rishimiz mumkinki, 2023-yilda 2019-yilga nisbatan O‘zbekistonda turizm sohasida ichki turizmdagi turistlar soni barqaror o‘shish kuzatilgan va 137% ni tashkil qilgan. Faoliyat ko‘rsatayotgan turistik korxonalar va tashkilotlar soni 115% ga hamda mehmonxona va shunga o‘xshash

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

joylashtirish vositalarida joylar soni 132% ga oshganligi kabi ko'rsatkichlar turistlarni joylashtirish vositalari bilan ta'minlanganlik holati haqida dalolat beradi. Biroq, 2019-yildagi ko'rsatkichlarga nisbatan 2023-yilda dam olish tashkilotlari va turistik bazalari obyektlari soni 57 foizga hamda joylar soni 50 foizga farq tafovuti aniqlandi. Bunday holatni O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 13-avgustdagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi O'RQ-552-sonli qonuni asosida yer uchastkalarini toifasi o'zgartirilganligi bilan izohlanadi.

Shu bois, mamlakatimizning milliy tabiat bog'lari (MTB), o'rmon va o'rmon-ov xo'jaliklari, tog'li hududlarida joylashgan yer uchastkalarini ularning toifasini o'zgartirilmagan holda ekoturizmni rivojlantirish salohiyati aniqlandi. Xususan, "Orolqum" (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Mo'ynoq tumani), "Pop" (Namangan viloyati, Pop tumani), "Omonqo'ton" (Samarqand viloyati, Urgut tumani), "Yuqori To'palang" (Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumani) va "Bobotog'" (Surxondaryo viloyati, Uzun tumani) milliy tabiat bog'larining yer maydonlaridan rekreatsiya va xo'jalik maqsadida foydalanish uchun hududlar ajratiladigan<sup>12</sup>. Ma'lumotlar asosida milliy tabiat yer maydoniga nisbatan "Orolqum" MTB-20%, "Pop" MTB 30%, "Omonqo'ton" MTB 27%, "Yuqori To'palang" MTB-24%, "Bobotog'" milliy tabiat bog'i 25% yerlari rekreatsiya va xo'jalik maqsadida ajratilganligi aniqlandi. Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida milliy tabiat bog'lari o'rmon va o'rmon-ov xo'jaliklari, tog'li hududlarida joylashgan yer uchastkalarini ularning toifasini o'zgartirilmagan holda turistik klasterlar tashkil etish uchun tadbirkorlik sub'ektlariga ekoturistik salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda faoliyat ko'rsatish taklifi berildi. Shuningdek, Samarqand viloyati misolida hududlar ekoturistik salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari ishlab chiqildi. Hududlarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish uchun turistik obyektlari miqdori asosida ekoturistik salohiyatini aniqlash uslubi qo'llanib, ekotizimini hisobga olgan holda hududlarda ekoturistik hudud tashkil qilish holati aniqlandi. Natijada Ohalik, Mironko'l, Omonqo'ton hududlarning jozibadorligini aniqlash asosida ushbu hududlarda ekoturistik hududlarni tashkil qilish salohiyati yuqoriligi aniqlandi. Shundan so'ng, "Omonqo'ton" MTB yer maydoniga nisbatan 27% rekreatsiya va xo'jalik maqsadida ajratiladigan yerlardan samarali foydalanish yo'llari ishlab chiqildi.


Tadqiqot davomida, Omonqo'tonning 50 km<sup>2</sup> maydonida 6 ta turistik obyekt mavjud bo'lib, jozibadorlik koeffitsiyenti 0,1 ni tashkil qilishi va bu natija ko'rsatkichlaridagi turistik obyektlar miqdori jihatidan farq qilishi aniqlandi. Turistik obyektlar miqдорiga nisbatan jozibadorlik koeffitsiyentini hisoblashdagi farqlarni absolyut va nisbiy xatoliklarini namoyon etish asosida bu hudud jozibadorlik koeffitsiyentining yuqori ekanligi aniqlanib, ekoturistik hududlarning salohiyatini aniqlash uslubi takomillashtirilgan. Tabiiy resurslar jozibadorlik koeffitsiyentini hisoblash usuliga binoan tadqiqot olib borilayotgan hududning jozibadorlik koeffitsiyenti 0,3-0,5 ni tashkil qiladi. Tahlil natijalariga ko'ra,

---

<sup>12</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-5892355>

“Omonqo‘ton” hududining tabiiy resurslar mavjudligi bo‘yicha jozibadorlik koeffitsiyenti asosida yuqori darajaga mos kelish aniqlandi.

Ekoturistik salohiyati yuqori bo‘lgan ekohududlarda yo‘l infratuzilmasini yaxshilash, turizm va unga yondosh infratuzilmani qurish, rekonstruksiya qilish uchun hududlarning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda investitsiya dasturiga kiritib borish maqsadida “Omonqo‘ton ekoturizmi” interaktiv xaritasi ishlab chiqildi.



**3-rasm. GAT dasturi asosida yaratilgan Omonqo‘ton ekoturistik hududining interaktiv xaritasi<sup>13</sup>**


Dissertasiyada Omonqo‘ton ekoturistik hududining elektron interaktiv xaritasidagi ishlab chiqilgan mezonlar (tog‘larning balandligi, qiyaliklarning chuqurligi, turistik obyektlar va so‘qmoqlarning mavjudligi, yo‘llar holati, yerdan foydalanish imkoniyatlari)dan ekohududlarda turizm salohiyati yuqori bo‘lgan turistik so‘qmoqlarni aniqlash, ular bo‘ylab yaratiladigan infratuzilmaning (yo‘l ko‘rsatkichlari, kemping, dam olish joylari va boshqa) joylashuvini belgilashda foydalanish tavsiya etildi.

Holbuki, ushbu hududlar ekologik holatini aniqlashning takomillashtirilgan usul asosida mamlakatimiz hududlari ekoturistik salohiyatini aniqlash mumkin. Salohiyati yuqori bo‘lgan hududlar yer uchastkalarini ularning toifasini o‘zgartirilmagan holda turistik klasterlar tashkil etish uchun tadbirkorlik sub’ektlariga “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali faoliyat ko‘rsatish muddatini keyinchalik uzaytirish imkoniyati bilan 10 yil muddatga ekoturistik salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda ijaraga berish taklifi kiritildi.

Tadqiqot ishida, “Omonqo‘ton” MFY hududida ekoturistik kempinglar, bolalar oromgohi va sport kompleksini tashkil qilish hamda ekoturizm dam olish maskani faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha “Qishloqda ikki kun” deb

<sup>13</sup> Muallif ishlanmasi

nomlanuvchi mualliflik loyihasini amalga oshirish uchun ushbu hududda shakllanadigan talab va taklif munosabatlarini ilmiy-nazariy tadqiq qilindi.



**4-rasm. Hududlarda ekoturistik klaster yaratishning tashkiliy modeli<sup>14</sup>**

Tadqiqotdagi ilmiy-nazariy tahlil xulosasiga binoan yuqori jozibadorlikka ega bo'lgan Omonqo'ton ekoturistik hududida joylashgan turizm uchun ixtisoslashgan joy (turistik baza, shaharcha, qishloq) hamda ko'p miqdorda ekoturistik kempinglar, bolalar oromgohi va sport kompleksini tashkil qilish asosida ekoturizm dam olish maskani faoliyatini yo'lga qo'yish loyihasini amalga oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi. Ekoturistik hududlarda ekoturizm dam olish maskani faoliyatini yo'lga qo'yish natijasida turizm xizmatlari bilan bog'liq ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonlari aktivlarining faollashishi tadqiq qilindi va hududlarda ekoturistik klasterlarni yaratishning tashkiliy modeli ishlab chiqildi.

Hududlarda ekoturizm sohasiga ko'proq sayyohlarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish maqsadida har bir turistning individual talabi o'rganildi. Tadqiqot davomida so'rovnoma asosida ekoturistik hududga tashrif buyurishni tanlagan turistik oqimlarni hisobga olgan holda, shu hududning moddiy-texnik bazasini tashkil qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Turistlarni segmentatsiyalashda ularning demografik ko'rsatkichlari va (kim bilan, qaysi turni afzal ko'rishi, safarning yillik davriyligi, qanday va qaysi turga borishidan maqsadi) kabi

<sup>14</sup> Muallif ishlanmasi

ma'lumotlaridan birini tanlashi asosida 1723 ta respondentdan so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada X (874) nafar erkak va Y (849) ta ayol qatnashgan. Erkaklar va ayollarning umumiy ko'rsatkichlari asosida Z (respondentlarning yosh kategoriyasi) bo'yicha ajratilgan. Har bir yosh kategoriyasidagi respondentlarining turistik obyektlar (O)ni tanlashi ularning shu hududda necha kishi bo'lishini anglatadi. Z larning jinsi jihatidan ajratish ularni kempingdagi palatkalarga joylashtirishda e'tiborga olish lozim. Bunday ko'rsatkichlar palatkalarga oid moddiy-texnik bazani hisoblashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Turni tanlagan respondentlar turistik obyektgacha qanday borishini (velosiped, piyoda, avtomobil, toqqa chiqish orqali) tanlagani ularga zaruriy transport va anjomlarni tashkil qilish uchun moddiy-texnik bazani hisoblash imkonini yaratadi. Tadqiqot natijasida turistlarning demografik ko'rsatkichlari va ularning tanlagan afzalliklari asosida ekoturistik hududda yaratiladigan kempinglarda zaruriy moddiy-texnik bazasini tashkil qilish algoritmi ishlab chiqilgan. Algoritm asosida ekoturistik hududlarning zaruriy moddiy-texnik bazasi hisoblandi.

### 3-jadval

#### Hududlarda ekoturizm klasterdagi ekoturistik kempinglar va piknik zonalarning moddiy-texnik bazasini takomillashtirish algoritmi

Kempinglar soni, birlik	Palatkalar (4, 6, 10 kishilik) soni, dona		Velosipedlar soni, dona	Piyodalar uchun anjomlar soni, dona	Sport anjomlari soni, dona	Avtomobillar soni, dona
	Erkaklar uchun	Ayollar uchun				
K1	9 ta 10 kishilik, 1 ta 4 kishilik, 1 ta 6 kishilik	8 ta 10 kishilik, 7 ta 4 kishilik.	56	59	58	23
K2	13 ta 10 kishilik, 7 ta 6 kishilik, 3 ta 4 kishilik	15 ta 10 kishilik, 7 ta 4 kishilik.	103	140	68	18
K3	13 ta 10 kishilik, 2 ta 6 kishilik, 2 ta 4 kishilik	19 ta 10 kishilik, 4 ta 7 kishilik.	99	105	70	34
K4	15 ta 10 kishilik, 1 ta 6 kishilik, 1 ta 4 kishilik.	14 ta 10 kishilik, 1 ta 6 kishilik, 2 ta 4 kishilik	58	104	78	22
K5	5 ta 10 kishilik, 4 ta 6 kishilik, 1 ta 4 kishilik	6 ta 10 kishilik, 2 ta 6 kishilik, 4 ta 4 kishilik.	42	83	33	11
K6	3 ta 10 kishilik, 7 ta 6 kishilik, 1 ta 4 kishilik	8 ta 10 kishilik, 4 ta 6 kishilik, 5 ta 4 kishilik	58	106	46	10

